

## **XV ASR TEMURIYLAR DAVRI IJTIMOIY - IQTISODIY HAYOTI ALISHER NAVOIY ASARLARI MISOLIDA.**

**Dostov Iskandar Shodiyar o'g'li**

*Samarqand davlat universiteti*

*erkin tadqiqotchisi*

*(94) 532 01 61*

**Annotatsiya:** Alisher Navoiy hayoti, shaxsiy fazilatlari, faoliyati, ko'pqirrali merosini bilish va anglashga intilish moziydan hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda. Chunki ulug' o'zbek shoiri, nosiri, mutafakkiri, davlat arbobi, ma'rifatparvari, ijod ahlining murabbiysi, fuqaro g'amxo'ri, mamlakat yaxlitligi, tinchligi va osoyishtaligining tolmas kurashchisi Nizomiddin Amir Alisher Navoiy o'zining ko'pqirrali fa'oliyati bilan mamlakat va xalq taqdiri, ilm-ma'rifat, she'riyat va ma'naviyat tarixida alohida mavqega ega bo'lган benazir siymodir.

**Kalit so'zlar:** Vaqfiya, «Tarixi muluki Ajam, go'sha tutmoq», «Xalosiya» xonaqohi, Unsiya» turar joyi.

Alisher Navoiy o'zining faoliyati va oljanob insoniy fazilatlari bilan hayotligi vaqtidayoq juda katta obru va hurmatga sazovor bo'lган. Shuning uchun uning hayoti, faoliyati, ilmiy va adabiy merosini o'rganish, shaxsiy fazilatlarini yoritish, unga baho berish, uni ibrat-namuna sifatida e'tirof etib keng targ'ib etish o'sha vaqtdan, ya'ni XV asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Alisher Navoiy nafaqat nazm bilan balki bosh vazir sifatida obodonchilik ishlari bilan tarixda mashhur. Uning yurt obodonchiligi to'g'risidagi asarlarini tahlil qilsak,

**Vaqfiya** — 886 hijriy – 1481-1482 melodiy yilda yozilgan bo'lib, mazkur asarda Alisher Navoiy tomonidan bino qilingan «Ixlosiya» madrasasi, «Xalosiya» xonaqohi, «Shifoziya» dor ush-shifosi, «Unsiya» turar joyi, «Qudsiya» masjidi va boshqa imoratlar turkumi uchun birkitilgan vaqf va undan foydalanish tartibi bayon etilgan. Shuning bilan birga «Vaqfiya»ga yozilgan keng debocha juda muhim masalalarga bag'ishlangan. U hamd

bilan boshlanib, «nazm» sarlavhasi ostida o'n bir baytdan iborat masnaviyda bu mavzu davom ettirilgan. Masnaviyning boshlanishi va yakuniy bayti quyidagicha:

*Anga hamdkim, ilmlari tayb etur,*

*Va shul ilm ila olam ul-g'ayb erur...*

*Ayon ulcha mavjudu ma'dum anga,*

*Azal to abad ilmi ma'lum anga.* [MAT, 14- tom, 233-234-betlar].

Shundan so'ng na't qismi boshlanib, u ham o'n ikki baytli masnaviyda davom ettiriladi. Bundan keyin olamning va odamning yaratilishdan so'z borib, tabiatdagilar turli xilda ekanligi bayon etilgach, quyidagi ruboiy keltiriladi:

*Dehqoni azalki, tuzdi bu turfa chaman,*

*Qilmadi aning barcha nabolini hasan.*

*Bir sari agar ekti gulu sarvu suman,*

*O'zga sari tiki xasu xoshoku tikan.* [ko'rs. as., 237-bet]

Shundan so'ng Sulton Husayn Boyqaro vasfi boshlanib, u yigirma sak-kiz baytdan iborat masnaviyda davom ettiriladi. Alisher Navoiy Sulton Husayn Boyqaro davrida barcha qavm vakillari tarbiyat topgani haqida gapirib, uni ham masnaviy shaklida yakunlaydi. So'ng esa o'zi va hasbi holiga bag'ishlab nasr, masnaviy va ruboiy keltiriladi. Bunda eng muhimi Sulton Husayn Boyqaroning Alisher Navoiyga shohona noma(davlat manshuri) yuborgani va uning mazmuni esa masnaviyda bayon etilganidir. [o'sha as., 248-250-betlar]. Unda Sulton Husayn Boyqaroning Alisher Navoiyga murojaat qilib, «Yo'qtur sanga vaqt go'sha tutmoq» deb:

*Necha biyik aylasang so'zungni,*

*Ondin biyik etgabiz o'zungni...*

*Chun hukmni anglading dam urma,*

*Balkim dam urarg'a dag'i turma.*

*Qulluqqa ko'ngulni chust bog'la,*

*Xizmatqa belingni rust bog'la,-*

tarzida hukm qilgani bu davrda Alisher Navoiy hayotida ayrim davr-«go'sha tutmoq» kayfiyati mavjud bo'lgani hamda Husayn Boyqaroning bundan tashvishlanib, do'sti Alisher Navoiyni buyuk asarlar yozish, buyuk ishlarni amalga oshirishga da'vat etgani ma'lum bo'ladi. Shuning uchun Alisher Navoiy bu hukmni qabul qilgani haqida shunday yozadi:

*Qullarg'a o'zumni hamdam ettim,*

*Qulluqqa belimni mahkam ettim.*

Demak, mazkur masnaviy 1481 yil tarixiga daxldor bo'lgan nihoyatda muhim bir voqeiy hodisaning bayoni bo'lib, u boshqa asarlarida aynan shu tarzda takrorlangan emas.

Quyidagi ruboiylar ham shu asarda keltirilgan:

*To hirsu havas xirmani barbod o'lmas,*

*To nafsu havo qasri baraf tod o'lmas,*

*To zulmu sitam joniga bedod o'lmas-*

El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas [o'sha asar, 253-bet].

Shah adli uyini aylayin deb ma'mur,

Sa'y ayladim ul qadarkim, erdi maqdur.

Har nechaki Tengridin yetar sham'g'a nur,

Parvona erur joni kuyardin ma'zur. [o'sha asar, 255-bet]

Eldin manga garchi g'ayri zahmat yo'q edi,

Ayb ermas, agar muzd ila minnat yo'q edi.

El berdilar, ammo manga rag'bat yo'q edi,

Shah davlatidin bularg'a hojat yo'q edi [o'sha asar, 255-bet]

Bu va boshqa she'riy parchalar nasriy asarning «ziynati»gina bo'lib qolmay, balki o'sha davrdagi muhim hodisalar, shoir hasbi holi, kayfiyati, hayotiy tajribalarning falsafiy umumlashmasi sifatida katta adabiy-ma'rifiy ahamiyatga ega.

«**Tarixi muluki Ajam**»da ham she'riy parchalar mavjud. Bu she'riy parchalardan Iskandar haqida keltirilgan sakkiz baytlik masnaviy hamda asar oxirida Sulton Husayn Boyqaro ham tilga olingan masnaviy diqqatga sazovordir. [MAT, 20 tomlik, 16-tom, 217-218, 255-257-betlar]. Oxirgi masnaviyda Alisher Navoiyning ijodiy rejasi, ya'ni Sulton Husayn Boyqaro, uning ajdodlari tarixini bitish niyati borligi ifoda etilgan. «**Tarixi muluki Ajam**»ning oxirida bu niyatning bayon etilishi yozilajak asari «**Tarixi muluki Turon**», yoki «**Tarixi muluki turk**» tarzida rejalashtirilgani va bu bilan o'zbek tilida umumiylar tarixga oid yaxlit ixcham bir asarni –«**Zubdat ul-tavorix**»ni maydonga keltirishni nazarda tutganini taxmin qilishga imkon beradi.

Navoiyga o'xshash dohiy shoirlar tasodifan dunyoga kelmaydi. Buning uchun juda yaxshi shakllangan ijtimoiy-madaniy muhit va rivojlangan iqtisodiy-siyosiy sharoit zarurdir. Navoiy o'n beshinchi asr farzandi. Lekin uning ijodiy shaxsiyati Amir Temur asos solgan buyuk sultanat bilan, shu sultanatdagi ma'rifiy-ma'naviy ko'tarilishlar bilan chuqur bog'liq. Amir Temur Mirzo Ulug'bek taqdirida qanchalik muhim rolni bajargan bo'lsa, temuriyzoda Husayn Boyqaro ham Navoiyning Navoiy bo'lishida alohida hissa qo'shgan. Shuning uchun Amir Temur hukmronligi davrlarida shakllangan va ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotning deyarli barcha jabhalarida ibratli natijalar bergen davlatchilikdagi Birlik tuyg'usi Navoiyni ko'p ilhomlantirar edi.

### **Foydalanaligan adabiyotlar ro`yxati.**

1. Navoiyga qaytish. Xurshit Davron. *Иброким Ҳаққұл Навоийга қайтши*  
[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) күтүбхонасиги

2. Alisher Navoiy. Tarixi muluki Ajam. Asarlar. O'n besh tomlik. T.14. — T.:1967;
3. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. Asarlar. O'n besh tomlik. T.15. — T.:1968;
4. Alisher Navoiy. Vaqfiya. Asarlar. O'n besh tomlik. T.13. -T.: 1967;